

Date: 21<sup>st</sup> January-2026

**ONA TILI DARSLARIDA EGA VA UNING IFODALANISHI MAVZUSINI O'QITISH**

**Vafoqulova Go'zal Ochilovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon +998(97)9252885

**Annotatsiya:** Maqolada Ona tili darslarida ega va uning ifodalanishi mavzusini o'qitishda qo'llanuvchi metodlar mavzusi bo'yicha uslubiy metodik ta'limot keltirildi.

**Kalit so'zlar:** Gapning bosh bo'lagi, grammatik munosabat, ega, sintaktik aloqa, tobe bo'lak, hokim bo'lak

Ta'limda "Sintaksis" bo'limini o'qitishning yangi innovatsion tizimini yaratish o'zbek tili fanining muhim vazifalaridan biri ekanligini anglaymiz

| BILAMAN                                                                                                                                                               | BILISHNI<br>XOHLAYMAN      | BILIB OLDIM                                                                                                                                                                                                                                                         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Gap tarkibida ma'lum so'roqqa javob bo'lib, ma'lum bir sintaktik vazifada keluvchi so'z yoki so'z birikmasi                                                           | Gap bo'lagi nima?          | Gap bo'lagi gapning boshqa bo'laklari bilan o'zaro grammatik bog'langan, uzviy munosabatga kirishgan organik qismdir. Gap bo'lagi bilan gap orasidagi munosabat qism bilan butun orasidagi munosabatdek bo'lib, dialektik xarakterga ega.                           |
| 1. Saodat etilgan qizlarning butun latofatini egallab olgan (G'.G'ulom).<br>2. Botirlar xalqning xotirasida hamisha yashaydilar (Oybek).<br>4. O'qigan o'zar (Maqol). | Ega — bosh bo'lak sifatida | Ega va uning ifodalanishi. Gapning bosh bo'lagidan biri bo'lgan ega gapda kesim orqali ifodalanayotgan belgi predmetini anglatuvchi bo'lakdir. Egalar Kim? Nima? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi: Qirq talaba tushgan qayiq pristanga etib keldimi? (J.Sharipov) |

**2. Bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'laklar haqida**

Gap bo'laklari bir necha darajalarga bo'linadi: 1. Bosh bo'lak: kesim, ega. 2. Ikkinchi darajali bo'laklar: todiruvchi, hol, aniqlovchi.

Shunday qilib, gap bo'laklari bir necha darajalarga bo'linadi:

1. Bosh bo'lak: kesim, ega.

2. Ikkinchi darajali bo'laklar: to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi.

Gapda kesim bilan bog'lanib, shu kesimdagi qo'shimcha ifodalagan shaxs-sonni bildiruvchi va kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'ladigan bosh bo'lak ega deb

**Date: 21<sup>st</sup> January-2026**

ataladi. *Odam (kim?) ko'p , ish (nima?) kam. Atrof (qayer?) jimjit.*  
Ega bosh kelishikda bo'lib , odatda, quyidagicha ifodalanadi:

- 1.Ot bilan : *Shamol gullar hidini atrofga taratdi.*
- 2.Olmosh bilan : *Ular to'garak mashg'ulotlariga muntazam qatnashadilar.*
- 3.Harakat nomi bilan: *O'qish tugadi.*
- 4.Otlashgan so'zlar bilan : a) sifat bilan: *Oqlar yurishni boshladi.*  
b) son bilan : *Uchovimiz dala aylandik.*  
d) sifatdosh bilan : *Qimirlagan qir oshar.*  
e) ravish bilan: *Ko'plar qatnashdi.*  
f) taqlid so'z bilan: *To'plarning gumbur-gumburi eshitilardi.*  
g) modal so'zlar bilan: *Bor boricha , yo'q holicha.*
5. Ibora bilan : *Hafsalasi pir bo'lgani sezilib turardi.*
6. Sintaktik birliklar (so'z birikmasi) bilan: *Otlarning otxonaga olib o'tilmagani Ziyodillani taajjublantirdi.*

Ayrim paytlarda teng aloqadagi bir necha so'z ham butunicha yoki bo'lak – bo'lak ravishda ega bo'lib kelishi mumkin: *Otam bilan akam bozorga ketishdi.*

Ba'zan ega chiqish kelishigidagi so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunday paytlarda haqiqiy ega tushirilgan bo'lib, undan oldin kelayotgan chiqish kelishigidagi so'z ega vazifasini ifodalaydigan bo'lib qoladi: *Unda ham bu kitoblardan bor.* Bu gapdagi haqiqiy egani tiklash mumkin: *Unda ham bu kitoblardan biri bor.*

**1-mashq Gaplarning ega va kesimi, shuningdek, kesimlikni hosil qiluvchi shakllarni toping.**

1. Vadud Mahmud do'stlari bilan birga Behbudiyning so'nggi izlarini boshqa shaharlardan ham qidirgandi. 2. U Cho'lpon ta'sirida ozmi-ko'pmi barmoqda (barmoq vaznida) qalam tebratgan. 3. Iste'dodli shoir Botu suronli davr zayli bilan 34 yil umr ko'rdi. 4. Botu haqida o'ylaganimda, uni yaqindan bilgan kishilardan biri Laziz Azizzodaning satrlari yodimga tushadi.

(N. Karimov)

### **UYGA VAZIFA**

“Men liderman” mavzusida matn yaratish, matn tarkibidagi gaplarning egasini aniqlash.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. B.Mengliyev, O'.Xoliyrov. O'zbek tilidan universal qo'llanma – T., 2017;

